

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT**

Lingvistika

2025 Vol. 3 (1)

www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib: Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Sherqo'zi Qulbulov, Mahliyoxon Tuxtasinova, Ma'suma Mo'minova, Durdona Mahkamova.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“**Lingvistika**” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief: Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary: Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbaev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Sabohat Bozorova, Manzura Shamsieva, Gavhar Komilova, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Sherquzi Kulbulov, Makhliyokhon Tuhtasinova, Ma'suma Muminova, Durдона Mahkamova.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Hamidulla Dadaboyev

“Nahj ul-farodis” asari va uning XIV yuzyil turkiy adabiy til soʻz boyligi taraqqiyotida tutgan oʻrni.....8

Dilafruz Muhammadiyeva

“Boburnoma” lugʻatlarining leksikografik talqini.....18

Sherzod Atamuradov

Sifatsiz tarjima ishlarini yuzaga keltiruvchi omillar.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Ona tili darslarida badiiy matn tashkil etishning lingvistik asoslari....44

Nargiza Imomiddinova

Xitoy tili harbiy terminologiyasi tizimida soʻz-terminlarning derivatsion xususiyatlari.....49

Sabohat Qahhorova

“Qadam+ fe'l” komponentli birliklarning maʼno tizimi va tezaurusi....66

Qudratillo Bakirov

Qadimgi turkiy tildagi vaqt maʼnoli leksemalarning leksik-semantik tadqiqi va “Devonu lugatit turk” da ifodalanishi.....76

Charos Jumaniyozova

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv87

Мехрибон Шамсиддинова

Преимущества и недостатки использования инновационных технологий в обучении китайскому языку97

Dildora Suyunova

Harbiy nomlar terminologiyasida maʼnodoshlik va shakldoshlik hodisalari.....109

Shodiya Qurbonova

Nutqiy akt nazariyasi yoxud kommunikativ maqsadning ifodalanishi.....116

Umriniso Pulatova

Yoshlar slengining ijtimoiy-tabaqaviy xoslanishi.....125

Maftuna Mamarasulova	
Nominatsiya jarayonining nazariy asoslari	133
Madina Akramdjanova	
Olamning lisoniy manzarasida fitonimlarning aks etishi	142
Nargiza O'ralova	
Parsellyatsiyaning o'rganilishi: ilmiy nazariyalar va tadqiqotlar.....	149
Lola Usmonova	
Lisoniy shaxs tushunchasi va unga yondosh hodisalar tadqiqi.....	157
Muxlisa Arislanova	
She'riy matnlardagi metaforalarning lingvokognitiv asoslari: nazariy va amaliy tahlil (Erkin Vohidov she'rlari misolida).....	166
Durdona Bultakova	
O'zbek nutqiy etiketida fatik birliklarning qo'llanilishi.....	177
Ozodaxon O'ktamova	
Ingliz tilidagi raqamli muloqotda xushmuomalalik strategiyalari va ularning lingvistik xususiyatlari.....	183
Niluzar Axmedova	
O'zbek va ingliz tillarida shaxs ruhiy holatini ifodalovchi leksik birliklarning lisoniy qiymatini aniqlashda kontekst va madaniyatning roli.....	193

Content

Linguistics

Hamidulla Dadaboev

“Nahj al-Farâḍis” and Its Role in the Development of the XIV-Century
Turkic Literary Language Vocabulary.....8

Dilafroz Muhammadijeva

The lexicographic interpretation of the “Boburnama” dictionaries.....18

Sherzod Atamuradov

Factors that cause poor quality translation work.....31

Nodira Alavutdinova, Gulhayo Tolibova

Linguistic Foundations of Organizing Literary Texts in Mother Tongue
Lessons44

Nargiza Imomiddinova

Derivational features of word-terms in the system of military
terminology of the Chinese language49

Sabohat Qahhorova

“Qadam + fe’l” component unit’s semantic system and thesaurus.....66

Qudratillo Bakirov

Lexical-semantic study of time-meaning lexemes in the Old Turkic
language and expression in «Devanu Lugatit Turk».....76

Charos Jumaniyozova

An Anthropocentric Approach to the classification of Feature-attribute
semantics87

Mekhribon Shamsiddinova

Advantages and disadvantages of using innovative technologies in
teaching the chinese languages97

Dildora Suyunova

Phenomena of similarity in meaning and form in the terminology of
military names109

Shodiya Qurbonova

Speech act theory or expression of communicative purpose.....116

Umriniso Pulatova

The socio-stratification of youth slang.....125

Maftuna Mamarasulova

Theoretical foundations of the nomination process.....133

Madina Akramdjanova

The reflection of phytonyms in the linguistic picture of the world ...142

Nargiza O'ralova

The Study of Parcellation: Scientific Theories and Research.....149

Lola Usmonova

Study of the concept of linguistic personality and related phenomena.....157

Muxlisa Arislanova

Linguocognitive foundations of metaphors in poetic texts: theoretical and practical analysis (on the example of the poems of Erkin Vakhidov).....166

Durdona Bultakova

The use of phatic units in the speech etiquette of uzbek language.....177

Ozodaxon O'ktamova

Politeness Strategies and Their Linguistic Features in English Digital Communication183

Niluzar Akhmedova

The Role of Context and Culture in Defining the Linguistic Value of Lexical Units Expressing Human Psychological States in Uzbek and English193

Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv

Charos JUMANIYOZOVA¹

Annotatsiya

Ushbu maqolada belgi-xususiyat semantikasining tasniflanishida antroposentrik yondashuvning o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Tildagi belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar nafaqat obyektiv voqelikni, balki insonning idrok, tajriba va dunyoqarashi bilan bog'liq subyektiv tasavvurlarni ham aks ettirishi qayd etiladi. Ayniqsa, hajm-o'lchov ifodalovchi obyektiv sifatlar semantikasida nisbiylik va insonning shaxsiy dunyoqarashi, munosabati asosida shakllanuvchi subyektiv sifatlar misolida shaxsiy tajribaga asoslangan idrokiy farqlar va ularning sifat so'z turkumi semantikasida tutgan o'рни ko'rsatib beriladi. Maqolada belgi-xususiyatning obyektiv va subyektiv qirralari, ularning semantik guruhlari va inson omili chambarchas bog'liqligi izohlanadi. Shuningdek, belgi-xususiyat semantikasi tasnifiga antroposentrik yondashuv asosida sifat so'z turkumi leksemalarining nutqda qo'llanish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlari: *belgi-xususiyat, antroposentrik yondashuv, obyektiv belgi-xususiyat, subyektiv belgi-xususiyat, nisbiy belgi.*

Zamonaviy tilshunoslikda tilning inson tafakkuri va ijtimoiy-madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liqligini o'rganishga bo'lgan e'tibor ortib bormoqda. Shu jihatdan tilshunoslikning antroposentrik yo'nalishi til hodisalarini inson markazida tushuntirishga qaratilgan. Bu haqida professor N.Mahmudov o'zining "Til tilsimi tadqiqi" kitobida shunday deydi: "Antroposentrizm faqat til tadqiqigagina tilshunoslar tomonidan nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antroposentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir". Ya'ni bu yo'nalish til birliklarining tashqi tomoni, tuzilishi, shakli jihatdan emas, balki ichki tomonini, mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Oddiy qilib aytganda, tilni faqat grammatik tizim sifatida emas, balki inson ongi, tafakkuri va jamiyatdagi ro'lida o'rganishdir.

¹ *Jumaniyozova Charos Mahmudovna* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti, PhD.

E-pochta: ch.jumaniyozova@gmail.com

Iqtibos uchun: Jumaniyozova Ch. Belgi-xususiyat semantikasini tasniflashga antroposentrik yondashuv. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2025-3: 87-96.

O'zbek tili lug'at boyligining katta qismini tashkil qiluvchi belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlar, asosan, sifat so'z turkumiga jamlangan. Sifatlar ot va fe'llardan keyin nutqning asosiy qismlaridan biri sifatida belgilanadi [Tucyta et al.,2024:2]. Sifat turkumiga xos so'zlar boshqa "belgi" semasi mavjud so'zlardan o'zining narsa va hodisalarga xos birlamchi va statik belgi ifodalashi bilan farq qiladi. Sifatlarning antroposentrik tahlili sifatlarini faqat til tizimida grammatik birlik sifatida emas, balki insonning dunyoqarashi, tajribasi, qadriyatlarini bilan bog'liq holda o'rganishdir. Bu yondashuv sifat turkumiga taalluqli so'zlarning semantikasi orqali insonning voqelikni qanday idrok etishi va baholashini ko'rsatib beradi. Ya'ni til birliklari inson tajribasini aks ettiruvchi kognitiv xususiyatga ega bo'lar ekan, bu jihatdan belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar (sifatlar), ayniqsa, muhimdir. Chunki inson borliqni uning belgilari orqali his qiladi. Belgi haqidagi tasavvurni esa sezgi a'zolari orqali oladi. Nutq faqat grammatik qoidalar yig'indisi emas, balki shaxsning ichki dunyosi, hissiyoti, ma'naviyati bilan bog'liqdir. Ya'ni "Tashqi olamdagi sifat-xususiyat, harakat-holatlarni inson "o'z tanasidan o'tkazib", o'ziga xos nigoh tarzidan kelib-chiqib, go'yo o'ziga nisbatlab baholaydi va nomlaydi" [Mahmudov, 2017:56].

Borliqdagi mavjudot, narsa-hodisalarning belgi-xususiyatini bildiruvchi so'zlar guruhi sifat so'z turkumi ekan, unga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Sifat – borliqdagi mavjudot, narsa-hodisaning rangi, shakli, hajmi, holati va boshqa belgi-xususiyatlarini ifodalovchi mustaqil so'z turkumidir.

Tilshunoslikda antroposentrik yondashuv tildagi birliklarni insonning idrok, baholash va kognitiv jarayonlari markazida o'rganishni anglatar ekan sifatlar ham o'z mohiyatiga ko'ra insonning dunyoni sezishi va baholashi bilan chambarchas bog'liq. Belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlarning antroposentrik tahlili – bu borliqdagi belgi-xususiyatlarni inson qanday qabul qilishi va baholashidir. Borliqda har qanday mavjudot o'zining belgilari bilangina mavjud bo'lar ekan, inson ularni o'zining sezgi a'zolari orqali his qiladi. Ko'plab sifatlar sezgi organlari orqali his qilinadi: shirin (ta'm), qizil (ko'rish), shovqinli (eshitish) kabi. Bunday belgilar ko'proq faktga yaqinroq desak adashmaymiz.

Go'zal, yomon, ajoyib kabi sifatlarini his qilish va foydalanishda esa sezgi a'zolari bilan birga insonning shaxsiy munosabati, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar va qadriyatlar ham muhim ro'l o'ynaydi.

Tilshunoslikda predmetning o'ziga xos belgilari deskriptiv,

obyektiv belgilar, subyektning munosabati orqali orttirilgan belgilar baholovchi yoki subyektiv belgilar deb yuritilishi ma'lum [Ҳакимова, 2018: 63]. Buni jahon tilshunosligida ham ko'rishimiz mumkin. Taniqli lingvist Katrin Kerbra-Orekkioni ham sifatlarni obyektiv va subyektiv deb tasniflagan. Unga ko'ra subyektiv yoki baholovchi sifatlarni munosabatni baholash va aks ettirish vazifasini, obyektiv yoki tavsiflovchi sifatlarni esa obyekt haqidagi faktlarni taqdim etish vazifasini bajaradi [Tuckyta et al.,2024:3]. Demak, biz biror voqelikka munosabat bildirganimizda yoki uni tasvirlaganimizda unda mavjud obyektiv (sezgi a'zolarimiz orqali his qilishimiz mumkin bo'lgan, o'lchanadigan, tekshiriladigan) belgi-xususiyatlar bilan birga subyektiv (baholovchi, munosabat bildiruvchi) belgi-xususiyatlardan foydalanamiz. Bunda obyektiv belgi-xususiyat sifatlari orqali obyekt haqidagi faktlarni, subyektiv belgi-xususiyat sifatlari orqali esa so'zlovchining obyektga munosabati, nigohi, hissi va bahosi ifodalanadi.

Obyektiv(deskriptiv) belgilar predmetning real, kuzatiladigan va sezgi yoki o'lchov bilan tekshirish, aniqlash mumkin bo'lgan belgilar bo'lib, bunday belgilarni ifodalovchi sifatlarni insonning biologik sezgi chegaralariga tayanadi. Bunda insoniyatga berilgan beshta sezgi a'zo(ko'z, quloq, burun, til va teri) muhim ro'l o'ynaydi. Obyektiv sifatlarni otlarning o'ziga xos yoki kuzatilishi mumkin bo'lgan xususiyatlarini ifodalash va tavsiflash uchun qo'llanadi va so'zlovchi yoki yozuvchining shaxsiy fikr va munosabatlarini bildirmaydi [Tuckyta et al., 2024:3]. Tildagi obyektiv belgi-xususiyat ifodalovchi sifatlarni quyidagicha tasniflab o'rganish mumkin:

1. Perseptiv (idrokka oid, sezgi orqali qabul qilinadigan) belgilar;

Ko'rish orqali. Ushbu sifatlarni ko'rish orqali idrok etiladi va tasvirlanayotgan narsaning rangi, shakli va ko'rinishi haqidagi obyektiv ma'lumotni beradi. *U boshiga qizil durracha o'ragan, egniga yashil bluzka, to'q havorang shim kiyib olgan edi [O'H,236]. U jahl bilan chap tomonga burilib qaradi-yu, o'ziga shundoqqina taqalib kelayotgan qora "Volga"ni, rul chambaragini ushlaganicha iljayib o'tirgan Sirojiddinni ko'rdi [O'H,237].*

Eshitish orqali. Bunda ovoz, tovush, ohang, shovqin haqidagi belgi-xususiyatlar ifodalanadi: *To'satdan shundoq deraza ortida shovqin-suronli kuy yangradi [O'H,18].*

Hidlash orqali. Burun vositasida his etish mumkin bo'lgan hidga oid belgi-xususiyatlar ifodalanadi: *Qusib yuboray dedim. Sassiqlik ekansan deb mo'ychinakni qaytarib olganman [SA,113].*

Ta'm bilish orqali. Tatib ko'rish, iste'mol qilish orqali his qilnadigan belgi-xususiyatlar: *U ko'p yillardan beri bunaqa **shirin** sut ichmagandi*[SA,55].

Tana sezgisi orqali: Bevosita teri orqali his qilish mumkin bo'lgan belgi-xususiyatlar: *Kampir ro'moliga bog'liq **issiq** nonni qo'lidan qo'ymaydi*[SA,56].

2. Vaqt va makonga oid belgilarni ifodalovchi sifatlar: *yuqori, pastki, g'arbiy, janubiy, mavsumiy, kundalik, haftalik, dastlabki, so'nggi... Ertalabki majlisda Sherzodga metro qurilishi haqida zudlik bilan reportaj yozib kelishni topshirishdi* [O'H,216]. *Qadimiy kitoblarda yozilishicha, odamzodning xoki yeti qavat yerning tagigacha qoplab yotarmish* [O'H,218].

3. Material va sohaga oid obyektiv belgi-xususiyat ifodalovchi sifatlar. Bu guruh sifatlarga predmetning qanday xomashyodan yasalganligi, tarkibi yoki qaysidir sohaga oid ekanligini bildiruvchi *temir, ipak, paxta, fonetik, kimyoviy, fizik* va h.k. kabi sifatlar kiradi. *Sherzod **oynavand** aylanma peshtaxta oldidan o'tayotganida chiroq nurida yaltirab yotgan katta-kichik soatlarga qarab qo'ydi*[O'H,228]. *Nariroqda turgan **tilla** tishli ko'hlik qizga bir nima degan edi, qiz hiringlab kuldi* [O'H,229]. *Lahza o'tmay u ustiga sochiqcha yopilgan choynak, bejirim **kumush** patnis ko'tarib kirdi-yu, stolga qo'yib chiqib ketdi* [O'H,224].

Obyektiv belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar tarkibida hajm-o'lchov bildiruvchi so'zlar borki, ularning real, konkret bir o'lchov ma'nosi mavjud emas, balki boshqa bir obyektga nisbatan belgilanadigan hajm yoki o'lchovni ifodalaydi. Hajm bildiruvchi leksemalar ifodalaydigan nisbiy belgi predmet va hodisalarning katta-kichik, uzun-qisqa, tor-keng kabi belgilarini anglatadi. Bu belgilar obyektiv reallikka asoslangan bo'lsa-da, ularning ifodalanishi ko'pincha nisbiy xarakterga ega. Ularni har qanday hajmga yoki o'lchovga nisbatan qo'llash mumkin. Chunki bu belgilar biron-bir narsa-hodisani boshqa bir narsa-hodisaga solishtirish natijasida aniqlanadi. Bunday so'zlarning o'lchovi nisbatan olinadi va o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, biz *baland* so'zini har qanday balandlikdagi, o'lchamdagi predmetlarga nisbatan qo'llashimiz mumkin. Ya'ni, **baland bino** deb baho bergan binomiz o'zidan baland bo'lgan bino bilan solishtirganda **kalta bino** bo'lib qolishi yoki aksincha **o'ziga nisbatan past binoga** nisbatan haqiqatda **baland bino** bo'lishi mumkin. Bunday belgilarni oraliq hodisa sifatida baholab, nisbiy belgi deyishimiz mumkin. Chunki ular biror bir narsa belgisini ikkinchi bir shu kabi narsa bilan solishtirganda,

bir-biriga nisbatan olinganda aniqlanadi.

Katta, kichik, uzun, qisqa, og'ir, yengil, baland, past kabi leksemalarning o'lchov bilan bog'liq ma'nolarini aniqlash qiyin va hatto ilojisiz. Kattalik biron bir narsaning hajm, ko'lam, daraja jihatdan me'yordan ortiqligini bildiradi. Biron bir narsaning hajm, ko'lam jihatdan kattaligini ko'rish orqali sezish mumkin. Xuddi shu tariqa kichik, uzun, qisqa, baland, past kabi belgilarni ham kuzatish mumkin: *uyning kichikligini ko'rmoq, arqonning uzunligini ko'rmoq, yo'lning qisqaligini ko'rmoq, binoning balandligini ko'rmoq, daraxtning pastligini ko'rmoq*. Shu nuqtai nazardan kuzatish mumkin bo'lgan mazkur belgi nomlarini konkret nomlar deyish mumkin. Lekin katta, kichik, uzun, qisqa, baland, past kabi belgi-xususiyatlar alohida olingan obyektning o'ziga xos belgisi emas. Ushbu belgilar ma'lum bir me'yor bilan yoki bir-biriga nisbatan olinadigan obyektlar bilan shartlangandir. Archaning yashilligi uning statik, boshqa obyektlar ta'sirisiz faqat o'ziga xos belgisidir. Ushbu belgini bevosita ko'z orqali kuzatish mumkin. Archaning balandligini bilish uchun esa uni ma'lum bir boshqa obyekt (boshqa archa) bilan yoki ma'lum bir me'yor bilan taqqoslash, ya'ni o'lchash lozim. Bunday kuzatish, taqqoslash va u orqali hukm chiqarish bu bevosita kuzatishdan ancha murakkab bo'lgan aqliy idrok jarayonidir. Shu o'rinda ikkita bir-birini inkor qiluvchi holatga duch kelamiz. Bir tomondan katta, kichik, uzun, qisqa, baland, past kabi o'lchov nomlari ifodalayotgan belgilarni ko'rish mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan ushbu belgilar aqliy mushohada orqali idrok etiladi. Demak, hajm-o'lchov bildiradigan belgilar hissiy va aqliy bilishning hamkorligida idrok etiladi degan mulohazaga kelish mumkin. Xuddi shu kabi *og'ir, yengil* leksemalari nomlayotgan belgilarni ushlab ko'rib ham bilish mumkindek tuyulsa-da, ular ham aqliy jarayon aralashuvi mahsulidir. Buni quyida badiiy matndan olingan misollar orqali ko'rib chiqamiz.

Yengil leksemasi. *Tolibjon onasini ko'tarib, so'riga olib keldi. Yengil, qushdan ham yengil bo'lib qolibdi* [SA,8]. "Yengil" leksemasi "og'irligi, vazni kam, vazmin emas" [O'TIL,11] va bir qancha ko'chma ma'nolarni anglatadi. Ushbu misolda solishtirilayotgan obyektlar mavjud bo'lib, ular qush va onadir. Qush yengillik, kichkinalik belgisi sifatida kelyapti. Haqiqatda esa hech qachon qush va odamni og'irlik nuqtayi nazaridan solishtirib bo'lmaydi. Lekin bu yerda sho'rlik onaizorning qarib, kichrayib, ozib qolganini ifodalash maqsadida yozuvchi uni qush bilan qiyoslayapti va buning natijasida belgi nihoyatda kamaytirilib ifodalanyapti.

Katta leksemasi. *Kechqurun katta kuyov keladi. Nevaralar keladi. Uy to'lib ketadi-ya!* [SA,19] "Katta" leksemasi hajm, miqdor, yosh jihatdan belgining ortiqligini bildiradi va har qanday kattalikka nisbatan qo'llanishi mumkin. Biz keltirgan misolda esa bu leksema shaxsga nisbatan qo'llangan va u(obyekt) boshqa kuyovlarga (obyektlarga) nisbatan yosh jihatdan katta ekanligini bildiriyapti. U hamma uchun emas, balki faqat subyekt uchun *katta kuyov*, subyektning boshqa kuyovlariga nisbatan *kattadir*. Boshqa o'zidan yoshi kattalar bilan solishtirilganda esa u kichkina ham bo'lishi tabiiy.

Baland leksemasi. *Tolibjon ana shunday paytlarda baland bir tosh tepasiga chiqib, olislarga termuladi* [SA,53]. Baland so'zining ham aniq bir o'lchovi yo'q, lekin belgining me'yordan ortiqligini ifodalaydi. Bunda hatto me'yor ham aniq emas. Me'yor qachonki obyektlar solishtirilganda ma'lum bo'ladi. Unda ham bu me'yor faqat shu holat uchun me'yor, boshqa holatlarda esa u yana o'zgaradi. Yuqoridagi misolda esa subyekt tasvirlayotgan joy(makon)dagi barcha toshlar bir-biriga solishtirilganda aniqlangan baland tosh nazarda tutilgan.

Og'ir leksemasi. *Birozdan keyin qiyiqqa tuyilgan og'ir bir narsani otasining oldiga qo'ydi* [SA,19]. Og'ir leksemasi ham xuddi shunday. Uning ham aniq bir o'lchov ma'nosi mavjud emas. U har qanday og'irlikdagi aniq, konkret narsalarga nisbatan qo'llanishi mumkin.

Obyektiv belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlar guruhiga kiruvchi "hajm-o'lchov" ifodalovchi so'zlar boshqa obyektiv belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlardan farq qiladi. Ya'ni bunday so'zlar ifodalagan ma'no mutlaq emas, qiyosiy tarzda belgilanadi. Semantik jihatdan nisbiy belgi ifodalovchi so'zlar perseptiv belgilar guruhiga kiradi, chunki ular inson sezgi-idroki orqali aniqlanadi. Antroposentrik jihatdan esa nisbiy belgi insonning o'ziga xos qarashi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeyi, yosh va jins xususiyatlari bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, kattalar uchun *qisqa yo'l, yaqin masofa* bola uchun *uzun yo'l, uzoq masofa* bo'lishi tabiiy. Bu o'rinda belgini qabul qilishdagi farq subyektlarning yosh xususiyati bilan bog'liq.

Demak, amalda obyektiv sifatlarni ma'lum umumiy va farqli tomonlariga asoslangan holda perseptiv, vaqt va makon hamda material, sohaga oid turlarga ajratib tahlil qilish mumkin. Yuqoridagi tasnif tarkibidagi hajm-o'lchov ifodalovchi sifat leksemalar narsa-hodisalarga xos obyektiv ma'no ifodalashi bilan bir qatorda aniq, konkret o'lchov yoki chegaraga ega emas. Ular aniq, konkret narsalar

bilan qo'llanib obyektga xos nisbiy belgini, mavhum tushunchalar bilan qo'llanganda esa subyektiv ma'no ifodalaydi. Bu holat deyarli barcha obyektiv belgi-xususiyat sifatlariga xos deyishimiz mumkin.

Subyektiv sifatlar predmet yoki hodisaning obyektiv xossasidan ko'ra, gapiruvchi yoki ijtimoiy guruhning bahosi, his-tuyg'usi, qadriyat yoki nazariy qarashini ifodalovchi sifatlar bo'lib, bunday sifatlar insonning aralashuvisiz mavjud bo'la olmaydi. Biror bir holatga, shaxsga yo narsa-hodisaga yaxshi-yomon, chiroyli-xunuk yoki ajoyib deb baho berishda hissiyotimiz bilan birga, albatta, dunyoqarashimiz, holatimiz, axloqiy me'yorlarimizdan kelib chiqib fikr bildiramiz. Bunday belgi-xususiyatlarni ham sezgi a'zolarimiz orqali his qilishimiz mumkin. Masalan, ko'z bilan ko'rib his etish orqali biror qizga *chiroyli qiz, go'zal qiz* deb o'sha qizning ko'rinishiga xos belgi-xususiyatini ifodalashimiz mumkin. Biroq bu o'rinda qizga o'z munosabatini bildirayotgan shaxsning sezgi a'zosi (ko'z) orqali his etib go'zal, chiroyli deb qabul qilgan belgi-xususiyat gapiruvchining didi, dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq. Qizning go'zalligi barcha uchun bir xil belgi-xususiyat emas. Bu o'rinda obyektga xos belgi-xususiyatni ifodalashda subyektiv shaxsiy munosabati, go'zallikni qanday qabul qilishi, qanday tushunishi, didi aralashganini guvohi bo'lamiz. Biz hech qanday o'lchash mezonini yoki o'lchov asbobi bilan uni tekshirib ko'rish imkoniga ega emasmiz. Shu sababli ham bunday sifatlarini subyektiv sifatlar deyish haqiqatga mos. Subyektiv sifatlarini quyidagi kichik guruhlariga ajratib o'rganish ular haqida yanada aniq xulosalar chiqarishga yordam beradi.

1. Baholovchi sifatlar narsa va hodisalarga ijobiy yoki salbiy bahoni bildiradi. U foydalilik, ahamiyatlilik, ijobiy-salbiylik kabi mezonlarga asoslanadi va insonning umumiy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu guruh sifatlariga *yaxshi, yomon, foydali, zararli*, kabi so'zlarni kiritish mumkin. *Bu qishloq odamlarining yaxshi odatlari bor*[SA,148].

2. Estetik sifatlar insonning estetik didi, hissiyoti bilan bog'liq bahoni bildiradi. Bunga *go'zal, betakror, latofatli, xunuk, chiroyli, g'aroyib* kabi sifatlar kiradi. *Mana shu shiyponda uning nomiga olam-olam maqtov gaplar aytilgandi. Hozir shiypon ham ko'ziga xunuk ko'rinib ketdi*[O'H,259]. *Avtobus Shahar markaziga yetib kelganida, Sherzod Toshkent naqadar latofatli bo'lib ketganini yana bir bor chuqur his qildi* [O'H,209].

3. Emotsional, ya'ni insonning ruhiy holatini ifodalovchi – xursand, quvnoq, ma'yus, hafa kabi sifatlar insonning ichki

psixologik va ichki kechinmalari bilan bog'liq holatlarni ifodalaydi. *Yosh bolalardek baqirib-chaqirayotgani yo'q. Xotirjam,sovuqqon kurash olib boryapti*[(O'H, 254]. – Yaxshi uxlab turdingizmi? – dedi Sherzod **xushchaqchaq** ohangda [O'H,20].

4. Axloqiy-etik sifatlar, asosan, jamiyatning qadriyatlari va axloqiy me'yorlaridan kelib chiqadi va jamiyat negizida shakllanadi: *halol, insofsiz, vijdonli, adolatli, odobli* kabi. Bu guruh sifatlar,ayniqsa, antroposentrik tadqiqot uchun muhim bo'lib, madaniy-etik kodlarni ochib beradi. *Rost, halol odamlar, el-yurtga sidqidildan xizmat qilayotgan savdo xodimlari ko'p*[O'H,250].

- Ko'rdingizmi bu odamlar o'zining harom falsafasi bilan boshqalarni botqoqlikka tortadi [O'H,251]. E'tiqodli odamni ko'rsa masxara qiladi [O'H,252]. Shunaq qilib yozingki, boya o'zingiz aytgan imonsiz odamlar kimga sig'inishni bilmay qolsin [O'H, 254].

5. Metaforik-abstrakt sifatlar. Subyektiv belgi-xususiyat ifodalovchi bundaysifatlar yuqoridagi baholovchi, estetik, emotsional va axloqiy-etik deb nomlangan subyektiv belgi-xususiyat ifodalovchi sifat guruhlaridan farqli ravishda dastlab obyektiv ma'noda bo'lgan sifatlar abstrakt yoki baholovchi ma'noga ko'chadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, obyektiv belgilar sezgi organlari orqali bevosita aniqlanadi va ularning mavjudligi subyektga bog'liq emas. Biroq til amaliyotida obyektiv sifatlar subyektiv ma'no ifodalash uchun ham ishlatiladi. Bu jarayon metaforik ma'no va nutqiy konnotatsiya bilan bog'liq. Masalan, qora kunlar – rangni emas,balki og'ir,qayg'uli davrni;

Qalin do'st – qalinlik obyektiv belgi, lekin bu yerda yaqin, sodiq do'st degan ma'noni;

Achchiq haqiqat – achchiq ta'mni emas, ma'naviy ta'sir belgisini bildirib kelgan. Quyidagi badiiy matndan olingan misollarda ham obyektiv belgi(sovuq, qattiq)ning subyektiv ma'no ifodalaganini ko'rishimiz mumkin: *Sayfi Soqiyevich "shef"ning sovuq yiltirab turgan ko'zlariga, uzun bo'ynidagi uchburchak baqbaqasiga qarab o'tirarkan, o'zi jarga qulab ketgudek bo'lsa bu odam bir chekkaga chiqib olib bemalol tomosha qilishi aniqligini tushundi* [O'H,254]. *Majlis oxirida unga qattiq hayfsan e'lon qilishdi* [O'H,9].

Xuddi shu kabi har bir xalq egalarida muayyan sezgi natijasida hosil bo'lgan tuyg'ular boshqa bir tuyg'uga o'xshatiladi. Bu o'rinda ikki sezgining qorishiqligi emas, balki xalq ruhiyati va tafakkurining o'ziga xosligi xususida gap boradi [Xakimova 2025, 73].

Ko'rinadiki, subyektiv sifatlar ko'pqirrali bo'lib, baholovchi, estetik, emotsional, axloqiy-etik va metaforik-abstrakt turlarga

bo'linadi. Sifatlarining qaysi toifaga kirishi ko'proq kontekstga, pragmatik belgilariga qarab belgilanadi.

